

## INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH USULLARI

**Muxammadjonov Shoxrux Maxmudjonovich**

O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi magistratura tinglovchisi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Investitsiyalarni moliyalashtirish, kredit, Mikrokreditbank, kreditlash, kredit liniyalar.

Moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati nuqtai nazaridan ikki usul: tashqi va ichki manbalarga asoslangan moliyalashtirish usullariga bo'linadi. Moliyalashtirishning tashqi manbalariga davlatning maxsus imtiyozli kreditlari (Davlat mulk qo'mitasi, Bandlik jamg'armasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari jamg'armalari, Mikrokreditbankning maxsus resursI) tijorat banklari kreditlari (Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi); qimmatli qog'ozlar chiqarish va sotishdan tushgan mablag'lar; xorijiy kredit liniyalarini mablag'larini va boshqalar kiradi. Moliyalashtirishning ichki usulidan foydalanishda moliyaviy resurslar tashkil topish manbalari sifatida quyidagilar maydonga chiqadi: foyda, oborotdan tashqari aktivlarni sotish, mol etkazib beruvchilardan olingan kreditlar, debitorlik qarzlarining kamayishi, amortizatsiya ajratmalari, tadbirkorlarning jamg'armalari va boshqalar. Ayrim holatlarda muhim moliyalashtirish manbai sifatida mol etkazib beruvchilardan olingan kreditlardan foydalanish mumkin, biroq, bunda mol etkazib beruvchilar bilan yaxshi munosabatlar saqlanishi va ta'minotning barqarorligi buzilmasligi lozim. Tashqi moliyalashtirishning har qanday usulida korxona qarz olish hisobiga yoki aksiyalar chiqarish yo'li bilan moliyalashtirishni tashkil etadi. Tashqi manbalardan jalb etilgan mablag'lar quyidagi uch xil baholash mezoniga asoslanadi: mablag'lardan imkon boricha foydalanish vaqtin, xarajatlar miqdori (qarz kapitali qiymati), korxona ustidan nazoratning darajasi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari:

Budjetdan moliyalashtirish;

Lizing asosida moliyalashtirish;

Qarz majburiyatlari hisobidan, bank kreditlari, yuridik hamda jismoniy shaxslar majburiyatlari evaziga moliyalashtirish;

Ipoteka asosida (ko'chmas mulkni garovga qo'yish) moliyalashtirish;

Loyihaviy moliyalashtirish;

Sindikatli kreditlash;

Aksiyadorlik kapitali evaziga moliyalashtirish;

Sindikatli kreditlashga misollar:

London ostidagi Krossreyl tunneli . Londondagi Krossreyl tunnelining qurilish ishlari davom etmoqda. Loyihaning umumiyligi — 23 mlrd dollar. Qurilishga 11 yil vaqt kerak bo‘ladi, loyihaning ishlari 2007 yilda boshlangan. Bu loyiha 18 yirik bank tomonidan moliyalashtirilmoqda.

Jubail Industrial City .Saudiya Arabistoniga hanuz kengaytirmagan dunyodagi eng yirik sanoat shahri. Uning kengaytirish loyihasining qiymati 10 mlrd dollar deb baholangan. Bu loyihani moliyalashtirish uchun 7 ta bank va 3 ta investitsiya kompaniyasi o‘z mablag’larine ajratgan.

investitsiya faoliyatini o‘zining aniq tasniflash mezonlari va yo‘nalishlariga ega bo‘lgan faoliyat turi sifatida uni moliyalashtirish quyidagi:

- qimmatli qog‘ozlar bozori orqali moliyalashtirish;
- xorijiy investitsiyalar asosida moliyalashtirish;
- tijorat banklari va xalqaro moliya institutlar mablag’lari hisobidan ulush qo‘sish orqali moliyalashtirish mexanizmi yoki kredit liniyalari orqali moliyalashtirish;[1]
- sinditsiyalashtirilgan kreditlar asosida moliyalashtirish mexanizmi;
- investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi;
- vechurli moliyalashtirish;[2]
- korporativ moliyalashtirish;
- lizing orqali moliyalashtirish kabi mexanizmlar majmui hisobiga amalga oshiriladi.

Vechurli moliyalashtirishga misollar.[3]

Tyuo-sinkaseen, Yaponiya Temir yo‘l — bu albatta po‘lat g’ildiraklarning rels tutashgan joylariga urilishidan taralayotgan gumburlashi emas. 2014 yilda Yaponiya ilk bor magnitolevitatsion temiryo‘lning qurilishini boshladi. Bu temir yo‘l Tokio, Nagoya va Osakani 2027 yilda bir-biri bilan bog’lashi kerak. Dastlabki baholashlarga ko‘ra qurilishning umumiyligi qimmati 57 milliard AQSH dollarini tashkil etadi — bu fantastik summa. Temir yo‘lining umumiyligi 287 kilometrni tashkil qiladi va shu bilan birga poezd soatiga 500 kilometrgacha tezlikka erisha oladi. Natijada Tokiodan Nagoyaga atigi 40 daqiqada yetib olsa bo‘ladi. BU loyiha riski juda yuqori hisoblanadi va uni moliyalashtirishga bir qancha yirik banklar va investitsiya kompaniyalari o‘z mablag’larini ajratmoqda.[4]

Investitsiya loyihalarini vechurli moliyalashtirish — yuqori risk holatida moliyalashtirish hisoblanadi. Vechurli moliyalashtirish, asosan, zamonaviy texnika, texnologiya va yangi turdagisi ishlab chiqarishlarga joylashtiriladi. Vechur operatsiyalari (riskli operatsiya) — kapital qo‘yilmalar shaklidagi pul operatsiyalari hamda qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar — ilmiy-tadqiqotlar, loyiha-konstrukturlik ishlanmalari, kashfiyotlar yaratish va joriy qilish, yangi texnologiyalarni

joriy qilishni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday moliyalashtirish, asosan, innovatsion banklar va venchur firmalari (fondlari) tomonidan amalga oshiriladi.[5]

**Xulosa:**

Investitsiyalarini moliyalashtirishning bozor mexanizmlariga xos bo‘lgan aralash shakldagi moliyalashtirish, xo‘jalik subyektlari va aholining bo‘sh mablag‘larini to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya obyektiga yo‘naltirish, budgetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari evaziga moliyalashtirish kabilarni ham kiritish mumkin.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Sherov, A. (2015). Foreign experience in financing of higher educational system. Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach [L 26], 1, 92-95.[1]
2. Ibodov, A., & Sherov, A. (2015). Analysis of bank risks in Uzbekistan. Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach [L 26], 1, 60-63.[2]
3. Boberski Vince. Community Banking Strategies: Steady Growth, Safe Portfolio Management, and Lasting Client Relationships First published:10 September 2012 Print ISBN:9781576603697- 79 p.[3]
4. Docherty Adrian and Franck Viort. Better Banking: Understanding and Addressing the Failures in Risk Management, Governance and Regulation First published: 20 December 2013 Print ISBN:9781118651308, — 115 p.[4]
5. Jonathan Golin and Philippe Delhaise. The Bank Credit Analysis Handbook, A Guide for Analysts, Bankers, and Investors. — Second Edition. — Wiley, 2013. — 924 p.[5]